HAQIQAT VA MAJOZ – BAYON ILMINING ASOSI

ПОНЯТИЯ ИСТИНЫ И МЕТАФОРЫ – ОСНОВЫ АРАБСКОЙ РИТОРИКИ

CONCEPTS OF TRUTH AND METAPHORS – THE BASES OF ARABIC RHETORIC

Nigora MULLASODIQOVA,
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN,
PhD, Associate Professor,
Department of Arabic Language and Literature al-Azhar,
A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan

DOI: 10.47980/IIAU/2025/2/5

Annotatsiya. *Til inson fikrining boyligi va go‘zalligini ifodalovchi asosiy vosita bo‘lib, badiiy asarlarda majoziy ma’nolar orqali kuchli obrazlar yaratishga xizmat qiladi. Balog‘at ilmida fikr ifodalashning turli uslublari tahlil qilinadi, jumladan, bir gapning bir necha xil uslublarda ifodalanishi bayon ilmining markaziy masalasi deb e’tirof etiladi.*

Bayon ilmining asosini tashbih, haqiqat va majoziy ma’no hamda kinoya mavzulari tashkil etadi. Tashbih bir narsani boshqa bir narsaga o‘xshatishdir. O‘xshatish vositalari va o‘xshashlik jihatining mavjudligiga qarab tashbih turlari o‘zgaradi. Kinoya esa gap tagida boshqa bir gapni aytish, ya’ni qochirim qilish yo‘llarini o‘rgatadi. Haqiqat va majoz esa so‘zlarning asl va ko‘chma ma’no ifodalashini o‘rganadi.

Mazkur maqolada bayon ilmining asosiy tushunchalaridan biri bo‘lgan haqiqat va majozning stilistik xususiyatlari, ularning til vositasi sifatidagi funksional ahamiyati ilmiy tahlil qilingan. Maqolada tashbih, haqiqat, majoz, majoz mufrad, majoz murakkab, majoz lug‘aviy va majoz aqliy, majoz mursal, istiora, istiora tasrihiyya, istiora makniyya va kinoya kabi bayon vositalari klassik adabiyot namunalari va Qur’on oyatlari asosida tadqiq etilgan. Haqiqiy ma’no – so‘zning asl lug‘aviy mazmunini bildirsa, majoziy ma’no o‘sha so‘z orqali ifodalanadigan ko‘chma ma’noni ifodalaydi.

Maqolada obrazli ko‘chma ma’no lug‘aviy majoz tushunchasini tashkil qilishi, mantiqiy ifoda esa aqliy majoz tushunchasini tashkil qilishi haqidagi mulohazalar tahlil qilingan. Shuningdek, lug‘aviy va aqliy majoz o‘rtasidagi farqlar, ularning qo‘llanish uslublari turli misollar orqali ochib berilgan. “Istiora” tushunchasi va uning tasrihiy va makniy turlari, majoz mursalning sabab, natija, qism–butun munosabatidagi turlari misollar orqali izohlangan.

Maqolada arab va o‘zbek adiblarining asarlaridan turli misollar keltirilib, qiyosiy tahlil qilingan. Bayon ilmining nazariy asoslari bilan birgalikda ularning amaliy ko‘rinishlari ham o‘rganilgan. Shu bilan birga balog‘at ilmining uslubiy imkoniyatlarining mantiqiy, estetik va didaktik vazifalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *haqiqat, majoz, majoz lug‘aviy, majoz aqliy, majoz mufrad, majoz murakkab, majoz mursal, istiora, istiora tasrihiyya, istiora makniyya, istiora tamsiliyya va kinoya.*

Аннотация. *Язык выступает основным средством выражения богатства и красоты человеческой мысли, а в произведениях искусства он служит инструментом создания образов посредством образного смысла. В арабской риторике анализируются различные способы выражения мысли. Одним из центральных вопросов арабской риторической традиции является возможность передачи одного и того же содержания с помощью различных языковых конструкций. Основу арабской риторики составляют такие ключевые темы, как сравнение, прямое и переносное значение слов и предложений, а также ирония. Сравнение трактуется как уподобление одного объекта другому. Разновидности сравнения зависят от используемых средств и наличия элемента сходства. Ирония предполагает использование намёков и знаков для выражения скрытого смысла. Метафора, в свою очередь, исследует способы выражения как исходного (прямого), так и переносного значения слов и предложений.*

В настоящей статье проводится научный анализ стилистических особенностей прямого и переносного значения лексических единиц, которые являются одними из фундаментальных понятий риторики, а также рассматривается их функциональная роль в качестве выразительных средств языка. Подробно рассматриваются такие явления, как способы выражения переносного значения, типология метафор, в том числе образная и когнитивная метафора, метонимия, а также явно выраженные и имплицитные метафоры. Анализ проводится на основе примеров из классической арабской литературы, аятов Корана, а также произведений узбекских писателей, что позволяет осуществить сопоставительное исследование. Наряду с теоретическим осмыслением понятий арабской риторики, в статье рассматриваются их практическая реализация. Особое внимание уделяется методологическим возможностям арабской риторики, также логическим, эстетическим и дидактическим функциям образных выражений.

Ключевые слова: *основной смысл, иносказание, троп, метафора, лингвистический троп, ментальный троп, единичная метафора, сложная метафора, образная метафора, намекающая метафора, синекдоха, метонимия*

Abstract. *The richness and beauty of human thought serve as the primary means of expression, facilitating the creation of powerful images in fiction books through metaphorical meanings. In the field of rhetoric, various styles of expressing thoughts are analyzed, including the acknowledgment that the expression of a single sentence in multiple styles is considered a central issue in the study of discourse.*

The basis of Arabic rhetoric is made up of such key topics as comparison, direct and figurative meaning of words and sentences, and irony. A tashbih is the act of comparing

one thing to another. The types of tashbih vary depending on the means of comparison and the aspects of similarity present. Irony involves the use of hints and signs to express a hidden meaning. Metaphor, in turn, explores the ways of expressing both the original (direct) and figurative meaning of words and sentences.

This article provides a scientific analysis of the stylistic features of the direct and figurative meaning of lexical units, which are among the fundamental concepts of rhetoric, and also considers their functional role as expressive means of language. The article examines in detail such phenomena as ways of expressing figurative meaning, typology of metaphors, including figurative and cognitive metaphor, metonymy, as well as explicit and implicit metaphors. The analysis is based on examples from classical Arabic literature, verses of the Koran, and works of Uzbek writers, which allows for a comparative study. The literal meaning refers to the original lexical content of a word, while the figurative meaning expresses the metaphorical significance conveyed by that word.

The article analyzes the considerations regarding how figurative metaphorical meaning constitutes the concept of lexical metaphor, while logical expression forms the concept of intellectual metaphor. Additionally, the distinctions between lexical and cognitive metaphors have been elucidated through various examples. The concept of "metonymy" and its categorical and locational types, as well as the types of metaphorical relationships in terms of cause, effect, and part-whole relationships, have been explained with examples.

The article presents various examples from the works of Arab and Uzbek writers, accompanied by a comparative analysis. Along with the theoretical understanding of the concepts of Arabic rhetoric, the article examines their practical implementations. Particular attention is paid to the methodological possibilities of Arabic rhetoric, as well as the logical, aesthetic and didactic functions of figurative expressions.

Keywords: *Reality, metaphor, lexical metaphor, intellectual metaphor, simple metaphor, complex metaphor, extended metaphor, allegory, explicit allegory, implicit allegory, illustrative allegory, and metonymy.*

KIRISH

Inson qalbi, uning ma'naviy dunyosini tasvirlashda til eng muhim omil deb hisoblanadi. Til insonning o'y-fikrlarini turli yo'llar bilan ifodalash imkoniyatini beradigan buyuk kuchdir. Inson fikrini ba'zan ochiq-oydin, tushunarli va lo'nda, badiiy bo'yoqlarsiz ifodalasa, ba'zan mukammal badiiy san'at vositalardan foydalanib ifodalaydi.

Badiiy ifoda vositalari so'z shakllari yoki ma'nosida namoyon bo'ladi, ya'ni shakliy va ma'naviy san'atlar badiiyatni ifodalashda keng qo'llanadi. Ma'naviy badiiy san'atlarni shakllantirishda bayon ilmining asosi bo'lgan tashbih, istiora va kinoya mavzulariga bevosita murojaat qilinadi. Bu san'atlar o'zbek adabiyotida ham juda keng qo'llaniladi, masalan:

Tishing dur, labing marjon, xading gul, xating rayhon,

Yuzing hur, soching anbar, so'zing mul, menging menon.

Menon menging, so'zing mul, anbar soching, yuzing hur,

Rayhon xating, xading gul, marjon labing, tishing dur (Bobur, 1996).

Mazkur to'rtlikga e'tibor berilsa, inson tana a'zolaridan tish durga, lab marjonga, xad gulga, yuz g'am-tashvishdan ozod – hurga, soch hushbo'y anbarga, meng – xol menonga o'xshatiladi. Demak, bu to'rtlikda tashbihning balig' shakli qo'llanilgan va ayni o'rinda uchinchi misra ikkinchi misraga nisbatan, to'rtinchi misra esa birinchi misraga nisbatan teskari qilib joylanishi masnu' san'atining vujudga kelishi va shu bilan bir qatorda ma'noning yanada ta'kidlanishiga xizmat qilgan. Bu kabi san'atlar arab adabiyotida johiliya davridan boshlab keng qo'llanilgan, masalan:

هل لك من ليلة بيضاء مقمرة

كأنها فضة ذابت على البلد (Mu'tazz, https://www.aldiwan.net/cat-poet-ibn-Al-Mutaz)

Ko'rganmisiz, shunday oydin kechani,

Yurt samosi uzra erigan kumush parchani?!

Mu'tazzning qalamiga mansub bu baytda osmonda yaraqlab turgan to'lin oy erib oqayotgan kumushga o'xshatiladi. Muallif yaraqlab turgan oppoq to'lin oy timsoli orqali o'z yurtining tuni sokinligini ta'riflaydi, ya'ni oq rang tinchlik, farovonlik ramzi bo'lgani uchun yurtning kechalari tinch, osuda ekanini tashbih vositasida ko'rsatib bergan.

وَإِذَا الْمَنِيَّةُ أَنْشَبَتْ أَظْفَارَهَا

أَلْفَيْتُ كُلَّ تَمِيمَةٍ لا تَنْفَعُ

Ajal panchasin tekkizgan zahot

Angladim ming tumor berolmas najot

Bu baytdagi الْمَنِيَّةُ so'zi "ajal", أَظْفَار so'zi esa "tirnoqlar" ma'nosini ifodalagan va "ajalning tirnoqlari" deyish orqali uni dahshatli hayvon sifatida gavdalantirilgan, ammo matnda "hayvon" so'zi qo'llanilmagan. O'zbek adabiyotida ham "ajal chang soldi", "ajal domiga tortdi" "ajal elchisi eshik qoqib keldi" kabi iboralar bilan ajal dahshati ifodalanadi (https://ziyouz.uz/ozbek-nasri).

"أحمد بيته مفتوح" deganda tom ma'noda "Ahmadning uyining eshigi har doim ochiq" deb tushunish kerak, ammo bu gapning tagida boshqa ma'no kinoya qilinganini tushungan odam uni "Ahmad sahovatli inson" deb tarjima qiladi.

Bolasi hayallab qolgan onaning hayolida yuzaga keladigan butun jarayon tilda "kelguningcha ming bor o'lib, ming tirildim" iborasi bilan ifodalanadi. Shu kabi

umri poyoniga yetayotgan odam hayotida ro‘shnolik ko‘rmay o‘tganini “butun yo‘lim cho‘l ekan, na bir soya ko‘ribman, na to‘xtab bir tin olibman” deydi.

Demak, tilda har qanday gap yoki so‘z anglatayotgan mazmuniga ko‘ra haqiqiy yoki majoziy ma’no kasb etadi.

USLUBLAR

Ushbu tadqiqotning maqsadi – fikr ifodalashda majozning qo‘llanishini stilistik nuqtai nazardan tadqiq qilish. Buning uchun bayon ilmida o‘rganiladigan haqiqat va majoz, majozning turlari, aqliy va lug‘aviy majoz, majoz mursal, istiora va uning turlari Qur’on oyatlari va klassik davr adabiy matnlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotni amalga oshirishda qadimgi va yangi davrda ijod qilgan balog‘at ilmi olimlarining ilmiy qarashlari qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, sistem-struktur, tavsiflash kabi usullar asosida tahlil qilingan.

TAHLIL

Tilda har qanday gap yoki so‘z anglatayotgan mazmuniga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

Haqiqiy ma’no

Majoziy ma’no

So‘z o‘zining lug‘atda belgilangan asl ma’nosini anglatsa “haqiqat” deb ataladi, masalan:

“Uzoqdan sherni ko‘rdim” gapida “sher” asl ma’nodagi yirtqich hayvonni ifodalaydi.

بكت الطفلة – Qizaloq yig‘ladi

Misoldagi بكت fe’li “yig‘ladi” degan haqiqiy ma’nosini anglatgan.

Agar so‘z asl ma’nosi o‘rnida yangi ma’no ifodalasa “yangi haqiqat”, ya’ni “majoziy ma’no” deyiliadi (al-Hoshimiy, 1999), masalan:

“Sher shitob bilan kirib keldi” gapida “sher” jasur, shijoatli va qudratli inson ma’nosini bildiradi va uni majoziy ma’no deyiladi.

بكت السماء – Osmon yig‘ladi, ya’ni yomg‘ir yog‘di

Bu misolda esa بكت fe’lining asl “yig‘ladi” ma’nosi o‘rnida majoziy ma’no aks etgan va uni “yomg‘ir yog‘di” deb tushunish zarur bo‘ladi.

“Majoz” so‘zining lug‘aviy ma’nosi arab tilida ham, o‘zbek tilining izohli lug‘atida ham 1) yo‘l, o‘tish (borish) yo‘li, (tor) o‘tish joyi, o‘tiladigan joy, koridor; 2) majoz, ritorik (obrazli) ibora, notiqlik tili; metafora, istiora, allegoriya, kinoya, qochirim, obrazli so‘z va iboralar, obrazli (jonli, ifodali) ta’bir, kinoyali gap, so‘z yoki iboraning o‘z ma’nosidan boshqa, ko‘chma ma’noda ishlatilishi deb ta’riflanadi.

Odatda haqiqatni anglatadigan turdosh otlar turli ko‘chma ma’nolarni ifodalashi mumkin, masalan:

Sher – yirtqich hayvon – haqiqat; kuchli inson – yangi haqiqat;

Qarg‘a – qush – haqiqat; yomon odam – yangi haqiqat;

Kiyik – o‘txo‘r hayvon – haqiqat; ko‘zlari chiroyli qiz – yangi haqiqat;

Qo‘l – tana a’zosi – haqiqat; ne’mat va qudrat berilgan odam – yangi haqiqat;

Majoz so‘zlarning asl va ko‘chma ma’nolari orasidagi bog‘liqlikni tinglovchining ko‘z oldida his-tuyg‘u, o‘xshatish va mantiqiy fikrlash orqali gavdalantiradi. Haqiqiy va majoziy ma’nolarni ifodalayotgan so‘zlarning o‘rtasida ma’noni bir-bibriga bog‘lab turadigan bir bog‘liqlik bo‘lib, uni istilohda “العلاقة – aloqa” deyiladi. Majoziy ma’no ifodalashga ishora bo‘layotgan so‘z esa “القرينة – dalil” deyiladi (al-Hoshimiy, 1999), masalan:

أمطرت السماء لؤلؤًا - Osmondan yomg‘ir yog‘di

Bu gapdagi لؤلؤًا so‘zi aslida “dur” ma’nosini ifodalaydi. Osmondan esa dur yog‘masligi haqiqat, misolda “dur” so‘zi orqali “yomg‘ir” ma’nosiga ishora qilingan va unga “yog‘dirdi” so‘zi dalil – qarina bo‘lgan.

دخلت الوردة غرفتَنا - Xonamizga go‘zal qiz kirib keldi

Bu misolda “atirgul” so‘zi “chiroyli qiz” ma’nosida ekaniga “kirib keldi” fe’li dalil bo‘lgan.

قَتَلَ الْكَسْلاَنُ وَقْتَهُ - Dangasa vaqtini o‘ldirdi

Bu misolda esa “o‘ldirdi” so‘zining “zoe ketkazdi” ma’nosini ifodalaganiga “vaqt” so‘zi dalil bo‘lgan.

Majoz ishlatilishiga ko‘ra ikki turga taqsimlanadi:

المجاز اللغوي - lug‘aviy majoz

المجاز العقلي - aqliy majoz (al-Hoshimiy, 1999)

Lug‘aviy majoz – so‘z shakli orqali ifodalanadigan majoz bo‘lib, u o‘zining asl ma’nosi o‘rniga yangi ma’no ifodalaydi va bu ma’nolar o‘rtasida o‘zaro o‘xshashlik, bog‘liqlik asos bo‘ladi, masalan:

“Yuragi tosh” iborasidagi “tosh” so‘zining asl ma’nosi – qattiq jism bo‘lib, ko‘chma ma’noda “hissiz odam”ni gavdalantiradi, hissiz odamning yuragi toshning qattiqligiga o‘xshatiladi, demak asl va majoziy ma’no orasidagi o‘zaro aloqadorlik – qattiqlikdir.

“Olov odam” iborasidagi “olov” so‘zining asl ma’nosi – alanga, otash, ko‘chma ma’noda esa “jo‘shqin xarakterli odam”ni ifodalagan. Insonning jo‘shqin xulqi otash bo‘lib yonayotgan olovga qiyoslanadi.

ابتسم لي الأسد - Menga sher tabassum qildi

سال دمع العينين على الوردتين في الوجه الصبوح

Oy yuzli dilbarning ko‘zyoshlari atirgul yanoqlari uzra oqib tushdi

Bu misollarda ham “sher”, “atirgul” so‘zlari majoziy ma’noni ifodalagan va u so‘z shaklida uyg‘unlashtirilgani uchun lug‘aviy majoz deb hisoblanadi.

Aqliy majoz – bu majoz turi lug‘aviy majoz kabi shaklda aks etmaydi, u gap tarkibida yuzaga kelib,

mazmunidan anglashiladi. Odatda fe'l yoki uning vazifani bajaradigan so'zlarning ma'nosini haqiqiy egaga emas, unga xos bo'lmagan boshqa egaga mantiqiy bog'liqlik asosida nisbat beriladi. Ya'ni, aqliy majoz so'zga yangi ma'no yuklamaydi, balki yuzaga keladigan ma'noni ikkinchi egaga nisbat sifatida ko'chirib o'tkazadi va uni mantiqan tushunish lozim bo'ladi (Atiq, 2002), masalan:

"Bemorni dard yeb bitirdi" deganda "yeb bitirdi" fe'li "biror yegulikni yeb tugatish" emas, balki dard insonni yengishi ko'zda tutiladi va bu ma'no mantiqan anglangani uchun "aqliy majoz" deb aytiladi. "Shahar uyg'ondi" deganda shahar odamga o'xshab uyg'onmasligi haqiqat, chunki "uyg'onish" uxlash ikkoniyati berilgan tirik mavjudotga xos belgi deb hisoblanadi. Yuqoridagi gap orqali shaharda yashaydigan odamlarining uyg'onishi va shahar asta sekin gavjumlanib boshlashi nazarda tutiladi.

سال الوادي Vodiy suvga to'lib oqdi -

Bu gapdagi سال so'zi "oqdi, to'lib toshdi, to'lib oqdi" ma'nolarini ifodalaydi. Vodiy so'ziga bog'lanib qo'llanganida go'yo vodiy suv kabi oqib ketadigandek tushunib qolish mumkin, aslida esa vodiy oqmaydi, u o'z joyida turg'un turadi, gapda vodiydagi suvning oqishi ko'zda tutiladi.

نهار الزاهد صائم وليله قائم

Zohidning kuni ro'zador, tuni esa ibodat bilan bedor

Bu misolda نهار – kun ro'za tutmasligini, ليل – tun ibodat qilmasligini bilamiz. Shunda tun va kunga nisbat qilinsa ham, aslida zohid odam kunduzi ro'zador, tunda esa bedor ibodatxon bo'lishi ko'zda tutilganini fahmlab "zohid inson kunduzi ro'za tutadi, tunda ibodat qiladi" deb tarjima qilish lozim.

Aqliy majozni ifodalashda gap bo'laklari, so'z turkumlari va boshqa parametrlardan kelib chiqib bog'liqlik, sabab, zamon, makon, ega, to'ldiruvchi, masdar kabilarga bog'lanishi mumkinligini alohida ko'rsatish zarur, masalan:

(وَقَالَ فِرْعَوْنُ يَا هَامَانُ ابْنِ لِي صَرْحًا (س. غافر: 36

Fir'avn dedi: Ey Homon, men uchun bir (baland) qasr qurgin.

Oyat tahlil qilinganda ابْنِ – qurgin fe'li gapning kesimi sifatida, ish harakatni bajaruvchisi – ega sifatida esa هَامَانُ – Homon so'zi keltirilganiga guvoh bo'lamiz. Aslida oyatda aytilgan qasrni Homonning o'zi qurmaydi, uni ishchilar quradi. Shunda Homon fe'l ma'nosi bog'langan so'z, haqiqiy ish bajaruvchi esa o'sha qasrni qurib beradigan ishchilar, Homon qasr qurilishiga sababchi bo'lgani uchun sababga asoslangan aqliy majoz deyiladi.

نهار الزاهد صائم وليله قائم

Zohid kunduzi ro'zador, tunda ibodat bilan bedor bo'ladi.

Bu misolda odamning qachon nima bilan bandligi ko'rsatiladi va u zamonga bog'langan aqliy majoz deyiladi.

(وَجَعَلْنَا الأَنْهَارَ تَجْرِي مِن تَحْتِهِمْ (س. الأنعام: 6

Ostlaridan daryolarni oqizib qo'ygan edik.

Oyatda "oqish" so'zi daryoga bog'langan, aslida daryo suv oqadigan joy va u o'z joyida turadi, oqmaydi, uning ichidagi suv oqadi, "daryolarni oqizdik" deyilganda uning ichidagi suvlarini oqizdik deb tushunish kerak. Shunda "daryolar" so'zi makonni ifodalagan aqliy majoz deb hisoblanadi.

كان المنزل عامرا وكانت حجراته مُضيئة

Uy obod, xonalari yorug' edi.

Bu misolda uy o'z-o'zidan gullab-yashnab, obod bo'la olmasligi, uning obod bo'lishiga uyda yashaydiganlar sabab bo'lishi, xonalar ham o'zi nur taratib tevarak-atrofni yoritmasligi aniq, xonalarga nur kirgani uchun yorug' bo'ladi deb tushunish zarur, shunda عامر so'zi aslida مُضيء , معمور esa مُضاء ma'nosida qo'llanganiga guvoh bo'lamiz, ya'ni matnda keltirilgan aniq darajali sifatdosh shaklidagi so'zlarni majhul darajali sifatdosh ma'nosida tushunish maqsadga muvofiq.

Aqliy majoz fikrni qisqa va ta'sirli bayon qilishni o'rgatadi. Uni ifodalashda badiiylikdan ko'ra mantiqiylik ustun turadi. Mantiqiylikga bog'liq bo'lgani uchun tinglovchini o'ylashga chorlaydi. Shuning uchun u ko'pincha "ma'oniy ilmi" doirasida tahlil qilinadi. "Bayon ilmi"da esa lug'aviy majoz ko'rinishlari tahlil qilinadi.

lug'aviy majoz va aqliy majoz o'rtasidagi farq quyidagicha belgilanadi:

Xususiyat	*Lug'aviy majoz*	*Aqliy majoz*
Asos	O'xshatish, umumiylik yoki aloqadorlik	Sabab-oqibat, mantiqiy munosabat
Ma'no	Yangi ma'no ifodalaydi	ma'noni ikkinchi egaga nisbat sifatida ko'chiradi
Qo'llanishi	Obrazli, tasviriy	Mantiqiy, aniq mazmunli
Misol	Ey jon sanga aning-dek, bir qul yana topilmas (Bobur)	Qish keldi

Lug'aviy majoz turida so'z va gaplarning ko'chma ma'no ifodalashi ko'zda tutiladi. Mana shu ko'chma ma'no obrazli qilib berilishi lug'aviy majozning asosiy talabidir. Bu turdagi majoz tuzilishiga ko'ra ikkiga ajratiladi:

1. مجاز مفرد
2. مجاز مركب

Ko‘chma ma’no bir so‘z vositasida ifodalansa مجاز مفرد – majoz mufrad deyiladi, shu kabi gap yoki so‘z birikmasi vositasida hosil qilinsa مجاز مركب – majoz murakkab deyiladi (al-Maydaniy, Al-balag’atul-arabiyyatu: ususuha, ulumuha va fununuha. 1996). Majoz murakkabni tashkil qiladigan ibora yoki gap odatda xabariy jumladan iborat bo‘ladi. Xabariy jumlaning asl mohiyati voqelikni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri holida ifodalashdir. Bunday jumlalarda so‘zlovchi voqelik haqida ma’lumot bermay, unga bo‘lgan munosabatini bildirishi “xabar”ning “insho”ga aylanishi deb hisoblanadi va u majoziy ma’no anglatib boshlaydi. Natijada butun jumla ko‘chma ma’no anglatib “majoz murakkab” yuzaga keladi, masalan:

أَخَذَت مِن شَبابِيَ الأَيّامُ
وَتَوَفّى الصِبا عَلَيهِ السَلامُ

Mazkur she’rning so‘zma-so‘z tarjimasiga e’tibor qilinsa, so‘zlovchi kunlar uning yoshligini olib qo‘ygani, ya’ni yoshligi o‘tib, katta kishi bo‘lganini ifodalaydi, mana shu ma’no xabariy jumla deb hisoblanadi. Ammo shoir bu o‘rinda yoshi ulg‘aygani haqida xabar berishni maqsad qilmagan. Uning haqiqiy maqsadi yoshligi o‘tib ketganidan xafaligini xasrat qilish bo‘lgan. Natijada haqiqiy ma’no o‘rniga majoziy ma’no shakllangan va u majoz murakkab deb hisoblanadi.

So‘zlarning haqiqiy va ko‘chma ma’nolari o‘rtasidagi bog‘liqlikga ko‘ra ham lug‘aviy majoz ikki turga ajratiladi:

1. مجاز استعاري
2. مجاز مرسل

Haqiqiy va ko‘chma ma’nolar orasidagi bog‘liqlik o‘zaro o‘xshash bo‘lsa “استعارة – istiora” deyiladi. Agar shu bog‘liqlik o‘zaro o‘xshash bo‘lmasa va sabab, yaxlitlik, juz‘iylik kabi turli xil boshqa munosabatlarga asoslangan bo‘lsa “ مجاز مرسل –majoz mursal” deyiladi (Iskandar, 2024), masalan:

رأيتُ أسدا يحمل سيفا qilich ko‘tarib olgan sherni ko‘rdim -

Gapda “sher” so‘zi asl ma’noni ifodalamay, jasur odam ma’nosini ifodalagan. Demak, odam va sher orasida o‘xshashlik borligi uchun istioraga misol bo‘ladi.

شربتُ ماء النيل – Nil suvini ichdim

Misolda “Nil suvi” birikmasi asl ma’noda emas, chunki daryo suvining hammasini ichib bo‘lmaydi, hammasi deyilganda ham aslida bir qismi ko‘zda tutiladi, bu o‘rinda o‘xshashlik o‘zaro mos kelmagani uchun “majoz mursal” deyiladi.

Demak, istiora va majoz mursal quyidagicha tuziladi:

Asl ma’no + aslga o‘xshash ma’no = ko‘chma ma’no: asos o‘xshashlik → istiora

Asl ma’no +aslga bog‘liq ma’no = ko‘chma ma’no: asos yaxlitlik, bo‘lak, sabab va h.k.z → majoz mursal

Istiora tushunchasining lug‘aviy ma’nosi biror narsani bir joydan ikkinchi joyga o‘tkazishdir, masalan:

استعرتُ من فلان شيئاً - falonchidan bir narsa olib turdim

Misolda استعرتُ fe’li “olib turdim, qarz oldim” degan asl ma’noni ifodalagan, shuning uchun bu gapni “حوَّلتُه من يده إلى يدي” – “narsani uning qo‘lidan o‘z qo‘limga o‘tkazdim” deb tushinish lozim.

Istilohda esa bir so‘z yoki ma’no o‘zining asl ma’nosidan boshqa ma’noni ifodalashi istiora deyiladi, masalan:

وَإِذَا الْمَنِيَّةُ أَنْشَبَتْ أَظْفَارَهَا
أَلْفَيْتُ كُلَّ تَمِيمَةٍ لا تَنْفَعُ

Ajal panchasin tekkizgan zahot
Angladim ming tumor berolmas najot

Baytdagi الْمَنِيَّةُ so‘zi “ajal”, أَظْفَار so‘zi “tirnoqlar” ma’nosini ifodalagan. Aslida ajalning tirnoqlari bo‘lmaydi, ammo uning matnda qo‘llanishi ajalni dahshatli hayvon sifatida gavdalantiradi. Baytda hayvon so‘zi tushirib qoldirilgan “mushabbah bih”dir.

كِتَابٌ أَنْزَلْنَاهُ إِلَيْكَ لِتُخْرِجَ النَّاسَ مِنَ الظُّلُمَاتِ إِلَى النُّور (س. إبراهيم: 1)

“Zulmat va nur” aslida “qorong‘ulik va yorug‘lik” ma’nosida bo‘lishi kerak edi, oyatda esa majoziy ma’no – zalolat va hidoyatni ifodalagan. Zalolat deb jaholatni, hidoyat deb ma’rifatni tushunish kutiladi. Ular o‘zining asl ma’nosida qo‘llanmagani uchun istiora deyiladi.

Istiorada ko‘chma ma’no tashbih – o‘xshatishga asoslanadi. Tashbihning to‘rt ruknidan o‘xshatishni ifodalovchi vosita va o‘xshash jihat gap tarkibida ishlatilishiga qarab tashbih turlari o‘zgarar edi, shunga binoan quyidagi misollarda tashbih turlari farqlanadi:

خالد كالأسد في الشجاعة – Xolid shijoatda sher kabidir

Bu misolda tashbihning hamma rukni mavjudligi uchun “tashbih mufassal” deb hisoblanadi.

خالد كالأسد – Xolid sher kabidir

Bu misolda esa o‘xshatish jihati yo‘qligi uchun “tashbih mujmal” deyiladi.

خالد أسد – Xolid sherdir

Bu misolda vosita ham, o‘xshatish jihati ham qo‘llanmagani uchun “tashbih balig” deb hisoblanadi.

Demak, tashbihning o‘xshatish jihati va vositasi tushirilsa tashbih turlari o‘zgaradi xolos.

Istioraning tashbih kabi ruknlari mavjud, ammo biroz farqlanib beshga bo‘linadi:

المستعار له – mushabbahga teng
المستعار منه – mushabbah bihiga teng
المستعار – ko‘chma ma’no
القرينة – ma’no ko‘chishiga dalil so‘z
الجامع – oradagi o‘xshash jihat.

Istiorani hosil qilish uchun tashbih tarkibidagi mushabbah yoki mushabbah bihi tushirilishi talab qilinadi, masalan:

خطب الأسد فوق المنبر– Minbardan sher nutq so‘zladi

Bu misoldagi الأسد so‘zi mushabbah bihi, mushabbah esa tushirilgan. Natijada istiora yuzaga kelgan.

Istiora ikki ruknning qo‘llanishiga qarab ikkiga taqsimlanadi:

1. الاستعارة التصريحية – ochiq-oydin ifodalangan istiora

2. الاستعارة المكنية – shama qilish bilan ifodalangan istiora

Istiora tasrihiyyani hosil qilish uchun musta’ar minhu – muhabbah bihi gap tarkibida keltiriladi, musta’ar lahu – muhabbah esa tushiriladi, masalan:

(اهْدِنا الصِراطَ الْمُسْتَقِيمَ (س. الفاتحة: 6

Oyatda din yo‘lga o‘xshatilgan, din – mushabbah, sirot – mushabbah bihi, din so‘zi keltirilmagani uchun “istiora tasrihiyya”ni hosil qilgan.

كِتَابٌ أَنْزَلْنَاهُ إِلَيْكَ لِتُخْرِجَ النَّاسَ مِنَ الظُّلُمَاتِ إِلَى النُّورِ (س. إبراهيم: 1)

Bu oyatda kufr zulmatga qiyoslangan, ya’ni kufr – mushabbah, zulmat – mushabbah bihi. Zulmat so‘zining keltirilishi, kufr so‘zining tushirilishi “istiora tasrihiyya”ni hosil qilgan.

أبصرْتُ قمرا ينظّف البيتَ. – Uy tozalayotgan oyni ko‘rdim

“Oy” – mushabbah bihi, mushabbah esa tushirilgan va aslida “qiz” so‘zi deb hisoblanadi.

Istiora makniyyani hosil qilish uchun esa musta’ar lahu – muhabbah gap tarkibida ochiq ishlatiladi, musta’ar minhu – muhabbah bihi esa tushiriladi, uning ma’nosiga isbot bo‘ladigan so‘z tarkibda saqlanadi, masalan:

(وَالصُبْحِ إذا تَنَفَّسَ (س. التكوير: 18

Oyatda “subh” so‘zi mushabbah vazifasida keltirilgan, mushabbah bihi sifatida “inson” so‘zi nazarda tutilgan, lekin tushirib qoldirilgan. “تَنَفَّسَ” so‘zidan inson harakati va bir vaqtning o‘zida nur chiqishi tushunilgani uchun istiora makniyya deb hisoblanadi.

بكت السماء على الشهيد

Misolda “osmon” mushabbah vazifasida va u gap tarkibida mavjud, inson – mushabbah bihi va u gapda tushirilgan, ya’ni osmonning bir jihati insonga qiyoslangan, bunga “بكت” so‘zi dalil bo‘lgani uchun istiora makniyya deb hisoblanadi.

Majoz murakkabda ko‘chma ma’no ikki va undan ortiq so‘zdan iborat birikma yoki gap vositasida hosil qilinishi ma’lum. Majoz murakkab tarkibiga istiora tamsiliyya kiradi, bu turdagi istiorada mushabbah bihi gap shaklida ifodalanadi. U tashbih tamsiliyga juda yaqin, farqi mushabbah va tashbih vositasining tushirilishi bilan bog‘liq, masalan:

أراك تقدم رجلاً وتؤخر أخرى

Bir oyog‘ingizni oldinga bosib, ikkinchisini kechiktirayotganingizni ko‘rayapman, gapida mushabbah bihi من يقدم رجلاً ويؤخر أخرى iborasidir, mushabbah esa tushirilgan. Bu gapda taraddudlanayotgan odam tasvirlanadi.

Bir so‘z o‘zining haqiqiy ma’nosidan boshqa ma’noda, o‘xshashlikka aloqasi bo‘lmay, haqiqiy ma’noni anglash ehtimolini yo‘q qiluvchi dalil bilan qo‘llanishi majoz mufrad mursal deb ataladi, masalan:

Shahar uyg‘ondi deganda shaharning uyqudan uyg‘onishi mumkin emasligi, shahar ko‘chalari odamlar bilan to‘la boshlashi nazarda tutiladi, majoz mursal so‘zning haqiqiy va ko‘chma ma’nolari orasida sabab, natija, yaxlitlik, qism kabi munosabatlarni yuzaga keltiradi. Bunday bog‘liqliklar ko‘p, ulardan eng muhimlari quyidagilardir:

1. السَّببيَّة: sababga bog‘liq natijani ko‘rsatish muqsadida sabab bo‘ladigan so‘zni keltirish

... قال تعالى: إِنَّمَا يُبَايِعُونَ اللَّهَ يَدُ اللَّهِ فَوْقَ أَيْدِيهِمْ

Misolda يد majoz mursal, ko‘zlangan maqsad esa القوة

2. المسببية – sababni bilish maqsadida natijani keltirish, masalan:

قال تعالى: هُوَ الَّذِي يُرِيكُمْ آيَاتِهِ وَيُنَزِّلُ لَكُم مِّنَ السَّمَاء رِزْقًا

Misolda رِزْقًا majoz mursal, ko‘zlangan maqsad esa المطر

3. الجزئية - bir bo‘lakni aytish bilan yaxlitni ko‘zda tutish, masalan:

(فَتَحْرِيرُ رَقَبَةٍ مُؤْمِنَةٍ (س. النساء: 92

(Uning zimmasiga) bir mo‘min qulni ozod qilish (farzdir).

Oyat so‘zma-so‘z “mo‘minning bo‘ynini ozod qilish” deb tarjima qilinadi, “bo‘yin” inson tanasining bir qismi va uni aytish bilan “inson”ning o‘zi ko‘zda tutilgani uchun tarjimada “qulni ozod qilish” deyish zarurdir.

Shu kabi “نشر الحاكم عيونه في المدينة” gapini misol qiladigan bo‘lsak, عيونه so‘zini so‘zma-so‘z tarjima qilib “hokim shaharga ko‘zlarini tarqatdi” deyish xato. “Ko‘zlari” tananing bir qismi bo‘lgani holida aslida “ayg‘oqchilar” ma’nosini ifodalagan. Shuning uchun bu gapni “hokim shahar bo‘ylab o‘z ayg‘oqchilarini tarqatdi” deb tushunish talab qilinadi. Shu o‘rinda arab tilida “عيونه” deb keltirilayotgan so‘zni har bir tilning xususiyatidan kelib chiqib, juz’iyligi saqlanib qolish sharti bilan o‘zbekchada “quloqlari” deb ifodalash mumkin.

4. الكلية – yaxlitni aytish bilan uning bir qismini ko‘zda tutish, masalan:

(يَجْعَلُونَ أَصابِعَهُمْ فِي آذَانِهِم (س. البقرة: 19

Barmoqlarini quloqlariga tiqib olurlar.

Oyatdagi أَصابِعَهُمْ so‘zining ma’nosi “barmoqlari”, ayni o‘rinda barmoqni quloqga hammasini tiqishning iloji yo‘qligi ma’lum, shuning uchun “barmoq” deb yaxlit aytilsa ham “أَنامِلَهُمْ – barmoqlarining uchi” deb, uning bir qismini tushunish kerak bo‘ladi.

5. باعتبار ما كان – biror narsaning avval nima bo‘lganini hisobga olib gapirish:

شربت بنا – qahva ichdim

بنّ so‘zi majoz mursal, undan ko‘zlangani esa “qahva”.

6. باعتبار ما سيكون – bir narsani keyinchalik nima bo‘lishini hisobga olib gapirish:

قال تعالى: وَدَخَلَ مَعَهُ السِّجْنَ فَتَيَانَ قَالَ أَحَدُهُمَا إِنِّي أَرَانِي أَعْصِرُ خَمْرًا

Oyatda “خَمْرًا” majoz mursal va u kelajakdagi natijani ifodalovchi so‘z, aslida esa “عنب” so‘zi nazarda tutilgan.

Majoz mursal yana halliya, mahalliya, oliya,mujovara kabi ma’nolarda ham qo‘llanishi mumkin.

NATIJA

Bayon ilmining asosiy vazifasi arab tilining uslublari va go‘zalligini tushunishga yordam berishdan iborat. Bu ilm bizga so‘zma-so‘z ifodalab bo‘lmaydigan chuqur va murakkab ma’nolarni ochishga yordam beradi. Bayon ilmining mavzusi bir fikrni obrazlashtirib bir necha uslubda ifodalash ko‘nikmasiga ega bo‘lishdir. Ifoda tarkibida qo‘llanadigan badiiy bo‘yoqdorlik ba’zan o‘xshatishga, ba’zan ko‘chma ma’noga asoslanib shakllantiriladi. O‘xshatish arab balog‘at ilmida “tashbih” deb nomlanadi va uning eng muhim jihati o‘xshatish vositasi va o‘xshashlik jihatining gap tarkibida mavjudligidadir. Ko‘chma ma’no ifodalashda esa mana shu ikki unsurning qo‘llanmasligi barobarida mushabbah yoki mushabbah bihidan birining gap tarkibidan tushirilishidir.

Majoz tarkibidagi so‘zlarga qarab lug‘aviy, aqliy, mufrad va murakkab kabi turlarga ajratiladi. Lug‘aviy majoz so‘z shakllari, aqliy majoz esa mantiqiylik orqali ifodalanadi. Lug‘aviy majozda so‘z shakli va obraz orqali o‘xshashlikga asoslangan yangi ma’no yuzaga kelsa, aqliy majozda mantiqiy bog‘liqlik va kontekstual munosabatlar orqali ma’nolarning o‘zaro ko‘chishi kuzatiladi. Lug‘aviy va aqliy majoz turlari vositasida ma’noning mazmunan boyishi, fikrni mukammal darajada estetik did va mantiqiy fikrlash orqali bayon etish ta’minlanadi. Majozning mufrad va murakkab deb taqsimlanishida so‘zlarning qanday konstruksiya tashkil qilayotgani muhim deb qaraladi. Mufrad turida ko‘chma ma’no uchun bir so‘z qo‘llanishi yetarli deb hisoblansa, murakkab turida birikma yoki gap orqali ifodalash talab qilinadi. O‘xshashlikga asoslanmaydigan majoz murakkab “majoz mursal” deyiladi. Agar majoz murakkab tarkibida haqiqiy va majoziy ma’no o‘rtasidagi munosabat o‘xshashlikga asoslansa, u “majoz” deb atalmaydi, balki “istiora tamsiliyya” deb nomlanadi. Chunki istiora yuzaga kelishi uchun ko‘chma ma’no o‘xshashlik asosida ifodalanishi zarur. Shunga ko‘ra majoz mavzularini quyidagicha taqsimlash to‘g‘ri bo‘ladi:

Istiora tasrihiya va istiora makniya turlarining farqlarini mushabbah bihi mavjudligi belgilaydi, agar mushabbah bihi gap tarkibida qo‘llangan bo‘lsa “istiora tasrihiyya” deb hisoblanishi, muhabbah bihi tushirilib, o‘rniga ishora bo‘luvchi ramzlardan foydalanilsa “istiora makniya” deb hisoblanishi ma’lum bo‘ldi. Istiora makniyaning go‘zalligi ishora orqali ta’kidli ma’no ifodalashdadir. Istiora makniyada haqiqiy va majoziy ma’no o‘rtasida ma’noga ishora qiluvchi bog‘liqlik bo‘lishi shart qilingan.

Mazkur badiiy uslublar klassik adabiy matnlarda keng qo‘llanilgan, shuningdek, Qur’oni karim oyatlarida eng oliy ko‘rinishda keltirilgan.

XULOSA

Maqolada majoziy ma’no ifodalovchi vositalar ma’noning ma’naviy va ruhiy ta’sirini ta’minlovchi muhim semantik omillardan biri ekani misollar asosida isbotlanadi. Majozni nafaqat bayon ilmining, balki ma’noni idrok etishning markaziy manbai sifatida baholash mumkin. U orqali estetik, mantiqiy va falsafiy mazmun ifodalanadi. Ayniqsa, aqliy majoz mantiqiy asosga tayangan holda fikrning chuqur qatlamlarini yoritib berish imkoniga ega. Lug‘aviy majoz esa badiiy tasvir va hissiy ta’sir vositasi sifatida xizmat qiladi.

Umuman, ushbu tadqiqot majozning lisoniy vosita sifatidagi ifoda kuchi, til va tafakkur, ma’no va ifoda o‘rtasidagi murakkab aloqalarni ochib berishga qaratilgan bo‘lib, klassik adabiyotdagi estetik ifoda vositalarining chuqur mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Mazojning stilistik va semantik xususiyatlarini Qur’on oyatlari va adabiy matnlar asosida tahlil qilish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Al-Asir, Z. (2016). Al-masalu-l-sā‘ir fī adabi-l- kātib va-sh-shā’ir. Qohira: Al-Bahiyya.
2. Al-Fodoniy, M. Y. (2008). SHuruhu durusi-l-balog’a. Husnu-s-siyag’a. Rumbag’: Baraka.
3. Al-Hoshimiy Ahmad.(1375h.). Javāẖiru-l-balag’a fi-l-ma’āniy va-l-bayān va-l-badi’. Bayrut‹ Livan: Dāru-l-‘ihyā’i-t-turāsi-l- ‘arabiy. .
4. Al-Johiz, A. U. (2006). Kitābu-l-bayāan va-t-tabyīn. Bayrut: Daru-l-jīl.
5. Al-Maydaniy, A. H. (Al-balag’atul-arabiyyatu: ususuha, ulumuha va fununuha. 1996). Al-balag’atul-arabiyyatu: ususuha, ulumuha va fununuha. Bayrut: darul-qalam.
6. Akkowiy, I. F. (1996). Al-mu’jamu-l-mufassal-fi ilmi-l-balag’a. Bayrut: Daru-l-kutubi-l-ilmiyya.
7. Atiq, A. (1985). ‘Ilmu-l-ma’āniy. Bayrut: Dāru-n-nahḍati-l-’arabiyya.
8. Atiq, A. (2002). Ilmul-bayan. Bayrut: Darul-fikr.

9. Atr, Z. (1988). Al-mu'jizatu-l-xolidatu. Bayrut: Daru ibn Hazm.
10. Bayzoviy, A. (1955: T.I: 12). Anvāru-l-tanzīl va asrāru-t-ta'vīl (Vol. T. I). Misr.
11. Begmatov, va mualliflar.(2020). O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
12. Bisyuniy, A. (1998). Ilmul-bayan. Dirasa tahliliyya. Qohira: Daru-l-ma'alimi-s-saqafiyya.
13. Bisyuniy, A. (2015). 'Ilmu-l-ma'āniy. Qohira.
14. Bobur, Z. M. (1996). Nazm durdonalari. Toshkent: Sharq.
15. Boqilloniy, A. (1993. T.II:202). 'I'jāzu-l-Qur'ān fī zayli-l-itqān (Vol. 2). Makka: Dārul-bāz.
16. El-Kubesi, A. A. K., & Shehade, M. M. S. M. (2019). مخالفات الرازي لأبي مسلم الأصفهاني في تفسيره الكبير–الجزء الأول من سورة البقرة نموذجاً-عرض ودراسة نقدية: The Differences between Abu Muslim al-Asfahani and Fakhruddin al-Razi in Surah al-Baqarah of al-T. Ma'alim al-Qur'an wa al-Sunnah. 15 (2), 197-214.
17. Fayad , S. (1995). An-nahwu-l-'asriy. al-Qohira: markazu-l-ahram.
18. Hava, S. (1985). Al-asas fi-t-tafsir. Qohira: Daru-s-salam.
19. Jorim Ali. Amin Mustafo. (1992). Al-balag'atu-l-vodihatu. Bayrut: daru sodir.
20. Ibn Manzur. (1378). Lisanui-arab. Bayrut: Daru-s-sodir.
21. Ibrohimov N, Oripov A, Ikromjonov A, Zayriev A. (2022. T.IV:600). Al-Qomus (Vol. IV). -Toshkent: G'afur G'ulom.
22. Iskandar, A. (2024). Kayfa tutqinu al-balag'ata. Qohira.
23. Ismoilov, B. (2020). LINGUOPOETIC ANALYSIS OF SURAH HUMAZA. Интернаука, 66-67.
24. Mahmud, B. (2020). PENGGUNAAN ASALIB AL-MA'ANI DI BEBERAPA AYAT DALAM AL-QUR'AN AL-KARIM. Prosiding Konferensi Nasional Bahasa Arab, 6(6), 889-905.
25. MANGGALA, D. N. (2014). USLUB AL IJAZ FI MAWLUD AL GHARB LI SHAYKH AL GHARB (DIRASAH TAHLILIYYAH FI'ILM AL MA'ANIY) .
26. Mansur, A. (2019). Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi. Toshkent: Toshkent islom universiteti.
27. Mullasodiqova, N. (2019). Formas de expresion de opinion en la ciencia Maoniy. Religación. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades, 4(20), 70-75.
28. Mu'tazz, A. (https://www.aldiwan.net/cat-poet-ibn-Al-Mutaz). Divan ibn Mu'tazz.
29. Qazviniy, J. (2003). Al-Iydoh fiy 'ulumil-balag'a al-ma'aniy val'bayan val badi'. Bayrut: Darul-kutubil-ilmiyya.
30. Quronov D., Mamajonov Z, Sheraliyeva M. (2013). Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent: Akademnashr.
31. Rustamiy, S. (2016). "ESASU-L-BELAGA" VE "DİVAN-U LUGAT-İT-TÜRK" ESERLERİNİN DİL BİLİMİ VE BELAGAT BİLİMİYLE İLGİLİ YÖNLERİ. Electronic Turkish Studies, 11(20).
32. Rustamiy, S. (2018). O'rta asr islom balog'at ilmida tilshunoslikka oid qarashlar. 112. Toshkent.
33. Rustamiy, S. (2023). ART OF UZBEK FOLK PROVERBS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 38-40.
34. Sofiy, M. (1999). Al-jadval fiy i'rabi-l-Qur'an va sarfihi va bayanihi. 3, p. 123.
35. Sohib Islom Maqsud ar-Rahmon. (2016, 12). Al-Iyjāz fi-l-Qur'āni-l-karim. AL-Iydāh, pp. 241-251.
36. YAFIE, I. (2016). AL IJAZ WA AL ITNAB FI AURAH IBRAHIM WA AMARYAM (DIRASAH TAHLILIYYAH BALAGHIYYAH FI'ILM AL MA'ANIY) .
37. Zamaxshariy, M. (1979). Asasu-l-balog'a. Bayrut: Daru-l-fikr.
38. Zamaxshariy, M. (2008). Al-Kashshaaf 'an haqa'iqi g'avamidi-t-tanzil va 'uyunil-aqovil fiy vujuhit-ta'vil (Vol. I). Darul-kitabil-'arabiy.
39. https://ziyouz.uz/ozbek-nasri. (n.d.).